O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.111:811.512.133'37

Xurshida IBOTOVA,
Assistent o‘qituvchi, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi, O‘zbekiston.
E-mail: ibotovaxurshida@gmail.com. ORCID: 0102-8758-6985-4120

Turon universiteti professori, T.Jumayev Taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NUTQIY FAOLIYAT FE’L LARINING SEMANTIK MAYDONI VA PRAGMATIK DIFFERENSIALLASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi nutqiy faoliyat fe’l larining semantik maydoni, illokutsion kuchi va pragmatik differensiallashuvi qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi nutqiy faoliyat fe’l larining oddiy "nutqni ifodalovchi fe’l lar" sifatida emas, balki kommunikativ harakatni nomlovchi, so‘zlovchining maqsadi va tinglovchiga yo‘naltirilgan ta'sirini kodlovchi birliklar sifatida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. J.L. Austinning performativlik konsepsiyasi, J.R. Searlening illokutsion aktlar tasnifi, Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi hamda Wierzbickaning semantik yondashuvi nazariy-metodologik asos sifatida olindi. Material sifatida ingliz tilidagi promise, request, apologize, declare, advise, thank kabi fe’l larning lug‘aviy va kontekstual qo‘llanishlari hamda ularning o‘zbek tilidagi semantik muqobillari qiyosiy-semantik, komponent, kontekstual-pragmatik va leksikografik tahlil metodlari yordamida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: nutqiy faoliyat fe’l lari, nutqiy akt, semantik maydon, illokutsion kuch, pragmatik differensiallashuv, performativlik, kommunikativ maqsad, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ И ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ГЛАГОЛОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье с позиций сопоставительной лингвистики исследуются семантическое поле, иллокутивная сила и прагматическая дифференциация глаголов речевой деятельности в английском и узбекском языках. Актуальность исследования определяется тем, что глаголы речевой деятельности выступают не просто как «глаголы говорения», а как единицы, называющие коммуникативное действие и кодирующие цель говорящего и воздействие на адресата. Теоретико-методологической основой послужили концепция перформативности Дж. Остина, классификация иллокутивных актов Дж. Сёрла, теория вежливости П. Браун и С. Левинсона, а также семантический подход А. Вежбицкой. На материале словарных и контекстуальных употреблений английских глаголов promise, request, apologize, declare, advise, thank и их узбекских семантических соответствий с помощью сопоставительно-семантического, компонентного, контекстуально-прагматического и лексикографического анализа показано, что формальная эквивалентность не всегда обеспечивает прагматическую: коммуникативная сила глагола определяется контекстом, социальной дистанцией, статусом и речевой ситуацией.

Ключевые слова: глаголы речевой деятельности, речевой акт, семантическое поле, иллокутивная сила, прагматическая дифференциация, перформативность, коммуникативная цель, лексикография, сопоставительное языкознание.

SEMANTIC FIELD AND PRAGMATIC DIFFERENTIATION OF SPEECH ACTIVITY VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article investigates the semantic field and pragmatic differentiation of speech activity verbs in English and Uzbek from a contrastive linguistic perspective. The study treats speech activity verbs not merely as verbs denoting speaking but as lexical units that encode communicative actions, speaker intention and the intended effect on the addressee. The theoretical framework combines Austin's theory of performativity, Searle's classification of illocutionary acts, Brown and Levinson's politeness theory, and Wierzbicka's semantic approach. English verbs such as promise, request, apologize, declare, advise and thank and their Uzbek semantic counterparts are analysed by means of contrastive-semantic, componential, contextual-pragmatic and lexicographic methods.

Keywords: speech activity verbs, speech acts, semantic field, illocutionary force, pragmatic differentiation, performativity, communicative intention, lexicography, contrastive linguistics.

Kirish. Tilning kommunikativ tabiatini o‘rganishda fe’l turkumiga mansub birliklarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki fe’l nafaqat harakat va holatni, balki insonning kommunikativ faoliyatini ham nomlaydi. “So‘ramoq”, “buyurmoq”, “va’da bermoq”, “uzr so‘ramoq”, “tabriklamoq”, “e’lon qilmoq” kabi birliklar bevosita nutq orqali bajariladigan harakatlarni ifodalaydi. Mazkur birliklar nutqiy faoliyat fe’l lari sifatida semantika va pragmatikaning tutash nuqtasida o‘rganilishi lozim.

Ingliz va o‘zbek tillarini qiyoslashda esa masala yanada murakkablashadi. Bir qarashda inglizcha promise – o‘zbekcha va'da bermoq, request – so‘ramoq/iltimos qilmoq, apologize – uzr so‘ramoq, declare – e’lon qilmoq kabi juftliklar to‘liq ekvivalentdek ko‘rinadi. Biroq real kommunikativ vaziyatda ularning qo‘llanish sharti, ijtimoiy masofa va illokutsion kuchi turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Mavjud ikki tilli lug‘atlarda esa bu farqlar ko‘pincha aks etmaydi. Shu bois tadqiqotning markaziy masalasi

“lug‘aviy ekvivalentlik”dan “funksional-pragmatik ekvivalentlik”ka o‘tishdir.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi nutqiy faoliyat fe’l larining semantik maydonini aniqlash, ularning pragmatik differensiallashuv mexanizmlarini ko‘rsatish va leksikografik tavsif uchun ilmiy model taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: nutqiy faoliyat fe’l larini illokutsion maqsadiga ko‘ra semantik mikromaydonlarga ajratish; tanlangan fe’l larning ikki tildagi qo‘llanishini aniq misollar asosida qiyoslash; pragmatik differensiallashuvni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash; nutqiy faoliyat fe’l larini lug‘atda tavsiflash uchun ko‘p qatlamli model ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqiy faoliyat fe’l larini o‘rganishning nazariy asosini nutqiy aktlar nazariyasi tashkil etadi. J.L.Austin til vositasida harakat bajarilishini ko‘rsatib, lokutsion, illokutsion va perlokutsion jihatlarni farqlagan [1]. Keyinchalik J.R.Searle nutqiy aktlarni assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar va deklaratsiyalarga ajratib, ularning kommunikativ maqsadini tizimlashtirdi [2]. Mazkur tasnif nutqiy faoliyat fe’l larining semantik guruhlarini aniqlash uchun qulay nazariy asos yaratadi.

Brown va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi nutqiy harakatlarning “face”ga ta’sirini hisobga olish imkonini beradi [3]. Ayniqsa, direktiv aktlar tinglovchining harakat erkinligiga ta'sir qilgani sababli “face-threatening act” sifatida baholanishi mumkin. Shu jihatdan ingliz tilida could, would, please kabi vositalarning, o‘zbek tilida esa shart mayli, hurmat shakllari va iltimos kabi birliklarning roli muhimdir.

A. Wierzbicka nutqiy akt fe’l larining ma'nosini semantik komponentlarga ajratib o‘rganish imkoniyatini ko‘rsatadi [4]. Bunday yondashuv va'da, uzr, iltimos yoki buyruq kabi tushunchalarning ichki semantik tarkibini qiyoslash uchun samarali hisoblanadi.

Pragmatikaning nazariy masalalari S.C. Levinson [5] va G. Yule [6] ishlarida tizimli bayon etilgan bo‘lib, ularda nutqiy aktlar deyksis, implikatura va xushmuomalalik bilan bir qatorda kontekstga bog‘liq ma'no hodisasi sifatida talqin qilinadi. M.A.K. Halliday funksional grammatikasida esa nutq fe’l lari so‘zlovchi (sayer), tinglovchi (receiver) va nutq mazmuni (verbiage) ishtirok etadigan "verbal process" sifatida tavsiflanadi [7]; bu yondashuv nutqiy faoliyat fe’l larining sintaktik-semantik qolipini aniqlashda muhim tayanch bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ingliz va o‘zbek tillaridagi nutqiy aktlarni qiyoslashga bag‘ishlangan ishlar ham paydo bo‘ldi. Z.P. Nuraliyeva iltimos, uzr, minnatdorchilik va ko‘rsatma kabi aktlarning ikki tilda ifodalanishida rasmiylik, bilvositalik va hurmat shakllaridagi farqlarni ko‘rsatgan [8]; M. Kuchkarova buyruq mazmunidagi aktlarda bevositalik va bilvositalik masalasini tadqiq etgan [9]; A.M. Toshpo‘latov o‘zbek tilidagi fe’l larning pragmatik va stilistik xususiyatlarini yoritgan [10]. Biroq ushbu tadqiqotlarda masala asosan nutqiy akt darajasida ko‘rilib, nutqiy faoliyat fe’l larining semantik maydoni va ularning leksikografik tavsifi alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materialini ingliz tilidagi nutqiy faoliyat fe’l lari (promise, request, apologize, declare, advise, thank, ask, order, guarantee va boshqalar) hamda ularning o‘zbek tilidagi semantik muqobillari tashkil etadi. Ingliz tili misollari Cambridge Dictionary lug‘at maqolalaridan [11–14] olindi, o‘zbekcha muqobillar esa funksional-pragmatik moslik tamoyili asosida berildi.

Tadqiqotda qiyosiy-semantik tahlil, komponent tahlil, kontekstual-pragmatik tahlil va leksikografik tahlildan foydalanildi. Tahlil to‘rt bosqichda olib borildi: 1) fe’l lar Searle tasnifi asosida besh illokutsion guruhga ajratildi (qiyosiy-semantik tahlil); 2) har bir fe’l ning semantik komponentlari aniqlandi (komponent tahlil); 3) fe’l ning qo‘llanish sharoiti – ijtimoiy maqom, masofa va nutqiy vaziyat – misollar asosida baholandi (kontekstual-pragmatik tahlil); 4) olingan natijalar lug‘at maqolasi modeliga umumlashtirildi (leksikografik tahlil).

Nutqiy faoliyat fe’l larini tavsiflashda uch darajali birlikni ajratish maqsadga muvofiq deb topildi: 1) nominativ-semantik daraja; 2) illokutsion daraja; 3) pragmatik-interaksional daraja. Birinchi daraja fe’l ning lug‘aviy mazmunini, ikkinchi daraja so‘zlovchi bajaradigan kommunikativ harakatni, uchinchi daraja esa ushbu harakatning kimga, qanday vaziyatda va qanday ijtimoiy munosabat asosida yo‘naltirilganini ifodalaydi.

Ushbu maqola empirik jihatdan korpusning to‘liq statistik tahliliga emas, balki tanlangan lug‘aviy va kontekstual misollarni sifat jihatidan qiyoslashga asoslanadi.

Tahlil va natijalar.

1. Nutqiy faoliyat fe’l larining semantik maydoni

Nutqiy faoliyat fe’l lari yagona semantik guruh bo‘lib qolmaydi; ular bajaradigan kommunikativ harakatiga ko‘ra bir necha mikromaydonlarga ajraladi. Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi model ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Nutqiy faoliyat fe’l larining semantik guruhlari

Semantik guruh	Ingliz tili	O‘zbek tili	Asosiy pragmatik komponent
Assertiv	assert, state, inform, claim	tasdiqlamoq, bayon qilmoq, xabardor qilmoq, da'vo qilmoq	axborot/ishonch
Direktiv	request, ask, order, advise	so‘ramoq, iltimos qilmoq, buyurmoq, maslahat bermoq	tinglovchini harakatga undash
Komissiv	promise, guarantee, swear, vow	va'da bermoq, kafolat bermoq, qasam ichmoq, ahd qilmoq	kelajak majburiyati
Ekspressiv	thank, apologize, congratulate, regret	rahmat aytmoq, uzr so‘ramoq, tabriklamoq, afsuslanmoq	hissiy munosabat
Deklarativ	declare, appoint, resign, name	e’lon qilmoq, tayinlamoq, iste'foga chiqmoq, nom bermoq	institutsional o‘zgarish

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki tilda semantik guruhlarning umumiy tipologiyasi mavjud. Biroq guruh ichidagi birliklarning kommunikativ kuchi bir xil emas. Masalan, advise va order ikkalasi ham direktiv bo‘lsa-da, birinchisida tavsiya va manfaat komponenti, ikkinchisida esa majburiylik komponenti ustun. Xuddi shuningdek, promise va guarantee komissiv maydonda yaqin bo‘lsa-da, promise so‘zlovchining shaxsiy majburiyatini, guarantee esa natija yoki holatning kafolatlanganligini kuchliroq ifodalaydi.

2. Aniq lingvistik misollar va pragmatik tahlil

Promise / va'da bermoq. Cambridge Dictionary promise fe’l ini “biror narsani albatta qilishini aytish” mazmunida izohlaydi va uni to-infinitive hamda that-clause bilan qo‘llashni ko‘rsatadi [11]. Masalan: “I promise to help you.” – “Men sizga yordam berishga va’da beraman.” Bu konstruksiyada so‘zlovchi kelajakdagi harakat uchun o‘z zimmasiga majburiyat oladi. “I promise I'll buy you another one” shaklida esa that-clause mazmuni ellipsis orqali yuzaga keladi [11]. Demak, promise semantikasining markazida

“kelajakdagi harakat + so‘zlovchining majburiyati” komponentlari turadi.

Request / so‘ramoq, iltimos qilmoq. Cambridge Dictionary request fe’l ini biror narsani muloyim yoki rasmiy tarzda so‘rash sifatida tavsiflaydi va “Visitors are requested not to walk on the grass” misolini keltiradi [12]. Bu misolda request oddiy ask bilan teng emas: u rasmiy-institutsional kontekstni ham faollashtiradi. O‘zbek tilida “Tashrif buyuruvchilardan maysazor ustida yurmaslik so‘raladi” shakli mazmunan mos keladi. Bu yerda fe’l ning grammatik shakli majhul konstruksiyaga ko‘chib, rasmiylik darajasini kuchaytiradi.

Apologize / uzr so‘ramoq. Cambridge Dictionary apologize fe’l ini boshqalarga noqulaylik yoki xafa bo‘lishga sabab bo‘lgan ish uchun afsus bildirish sifatida beradi [13]. “I must apologize to Isobel for my lateness” misolida ikki argumentli model – apologize to someone for something – aniq ko‘rinadi. O‘zbek tilida “Kechikkanim uchun Isobeldan uzr so‘rashim kerak” shakli pragmatik jihatdan mosdir. Bunda ingliz tilidagi to + person va for + reason munosabati o‘zbek tilida -dan va uchun ko‘makchi-affiksal vositalar bilan ifodalanadi.

3. Leksikografik model

Tahlil natijalari nutqiy faoliyat fe’l larini lug‘atlarda ko‘p qatlamli tavsiflash zarurligini ko‘rsatdi. An'anaviy ikki tilli lug‘atda “promise – va'da bermoq” shaklidagi ekvivalent yetarli bo‘lmasligi mumkin. Chunki foydalanuvchi fe’l ning qanday sintaktik modelda, qanday kommunikativ vaziyatda va qanday illokutsion kuch bilan ishlatilishini bilishi kerak.

Muhokama. Olingan natijalar Searle tasnifini nutqiy faoliyat fe’l lari leksikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Searle nazariyasida direktiv aktning maqsadi tinglovchini biror harakatni bajarishga undashdir [2]. Ammo “so‘ramoq”, “iltimos qilmoq”, “buyurmoq”, “maslahat bermoq” fe’l larining barchasini bitta “directive” kategoriyasiga kiritish ularning ichki semantik-pragmatik farqlarini yashiradi. Masalan, request odatda rasmiy yoki neytral so‘rovni, order esa yuqori darajadagi majburiylikni bildiradi. O‘zbek tilida esa so‘ramoq, iltimos qilmoq va buyurmoq o‘rtasidagi farq ko‘pincha fe’l ning o‘zi bilan bir qatorda -sangiz, -ingiz, -chi, iltimos kabi yumshatuvchi vositalar orqali yuzaga chiqadi. Tahlil asosida pragmatik differensiallashuvning quyidagi beshta omili ajratildi.

Birinchi omil – ijtimoiy maqom. Bir xil fe’l yuqori va past maqomli suhbatdoshlar o‘rtasida turlicha kommunikativ kuchga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, “Please submit the report” rahbarning xodimga murojaatida amaliy topshiriq sifatida qabul qilinishi mumkin, teng maqomdagi ikki hamkasb o‘rtasida esa muloyim so‘rov sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi omil – ijtimoiy masofa. Yaqin munosabatda “Send me the file” kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri direktiv tabiiy ko‘rinishi mumkin. Rasmiy vaziyatda esa “Could you send me the file, please?” shakli afzal bo‘ladi. O‘zbek tilida ham “Faylni yuboring” va “Faylni yuborsangiz bo‘lardi’ o‘rtasidagi farq aynan kommunikativ masofa va hurmat bilan bog‘liq.

Uchinchi omil – nutqiy vaziyat. ‘I guarantee that the product is safe’ jumlasidagi guarantee oddiy va'da emas; u so‘zlovchining ma'lum darajadagi ishonch va kafolat pozitsiyasini bildiradi. “I promise to call you” esa shaxsiy majburiyatni bildiradi. Demak, sinonimik yaqinlik kommunikativ identiklikni anglatmaydi.

To‘rtinchi omil – institutsional kontekst. Declare, appoint, resign kabi deklarativ fe’l lar o‘z-o‘zidan har doim ham institutsional natija tug‘dirmaydi; ularning to‘liq illokutsion kuchi tegishli vakolat va vaziyat mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi [2]. Masalan, "I declare the meeting open" jumlasi vakolatli shaxs tomonidan rasmiy majlisda aytilgandagina deklarativ akt sifatida ishlaydi.

Birinchi uchta omil Brown va Levinson nazariyasidagi ijtimoiy masofa, nisbiy hokimiyat va harakat og‘irligi o‘zgaruvchilari [3] nutqiy faoliyat fe’l larining leksik semantikasida ham namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. To‘rtinchi omil esa Austin va Searle ta'kidlagan muvaffaqiyat shartlarining [1; 2] leksikografik tavsifda ham hisobga olinishi lozimligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi fe’l larning pragmatik va stilistik xususiyatlari ularning ijtimoiy, uslubiy va ekspressiv imkoniyatlari bilan bog‘liq ekanligi alohida tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan [10]; mazkur tadqiqot bu kuzatishni nutqiy faoliyat fe’l lari misolida aniqlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi nutqiy faoliyat fe’l lari umumiy kommunikativ funksiyalar asosida qiyoslanishi mumkin, biroq ularning semantik va pragmatik tarkibi to‘liq darajada bir-biriga teng emas. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, fe’l ning lug‘aviy ekvivalenti uning illokutsion kuchini avtomatik ravishda ko‘chirmaydi. Ayniqsa, request–so‘ramoq, promise–va'da bermoq, apologize–uzr so‘ramoq, declare–e’lon qilmoq kabi birliklarda kontekst va kommunikativ maqsad muhim differensial omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy yangiligi nutqiy faoliyat fe’l larini “semantik birlik → illokutsion harakat → pragmatik shart” uchligi asosida tavsiflashni taklif etish bilan belgilanadi. Amaliy jihatdan mazkur model quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanishi taklif etiladi: inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarda nutqiy faoliyat fe’l larini sakkiz qismli model asosida tavsiflash; tarjima amaliyotida fe’l tanlashda illokutsion kuch va pragmatik belgini hisobga olish; ingliz tilini o‘qitishda direktiv va ekspressiv fe’llarni ijtimoiy maqom va masofaga bog‘lab o‘rgatish.

ADABIYOTLAR

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press.
2. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Wierzbicka, A. (1987). English Speech Act Verbs: A Semantic Dictionary. Sydney: Academic Press.
5. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.
7. Halliday, M. A. K. (1985). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold.
8. Nuraliyeva, Z. P. (2025). Speech acts in English and Uzbek: A pragmatic comparison. Modern Education and Development, 28(3), 37–40.
9. Kuchkarova, M. (2025). “Could you please...” vs. “Tayyorlang”: A pragmatic investigation of indirectness and directness in English and Uzbek language orders. The Lingua Spectrum,.
10. Toshpo‘latov, A. M. (2023). Pragmatic features of verbs in Uzbek language. JournalNX, 9(7), 50–56.
11. Cambridge Dictionary. (n.d.). Promise. In English Grammar Today. Cambridge University Press. https://dictionary.cambridge.org/grammar/british-grammar/promise.
12. Cambridge Dictionary. (n.d.). Request. Cambridge University Press. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/request.
13. Cambridge Dictionary. (n.d.). Apologize. Cambridge University Press. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/apologize.